Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 614.2:614.3(575.3)-053.6-330.1
ORCID: 0009-0008-0432-2361

BUGUNGI KUNDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna,
TerDPI Texnologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: dilfuza@terdpi.uzhttps

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari iqtisodiy-statistik tahlil asosida o'rganilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlari asosida global miqyosdagi sog'liqni saqlash muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha ilg'or tajribalar tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatimizda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, Prezident farmonlari, davlat dasturlari va ularning aholi salomatligi ko'rsatkichlariga ta'siri statistik raqamlar orqali yoritilgan. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, PF-5590-son farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosining samaradorligi ko'rib chiqilgan. Mintaqalarda sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishi uchun profilaktik yondashuv, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sog'liqni saqlash sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va strategik rejalashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy-statistik usullar, sog'liqni saqlash tizimi ko'rsatkichlari, aholi salomatligi, prognozlash.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

Аннотация: В данной статье изучены тенденции и перспективы развития системы здравоохранения в Узбекистане на основе экономико-статистического анализа. На основе данных Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) и Организации Объединённых Наций (ООН) проанализированы глобальные проблемы здравоохранения и передовой опыт их устранения. В исследовании освещены масштабные реформы, проведённые в последние годы в сфере здравоохранения нашей страны, указы Президента, государственные программы и их влияние на показатели здоровья населения на основе статистических данных. В частности, рассмотрена эффективность реализации «Стратегии Узбекистан — 2030», Указа Президента №ПФ-5590 и других нормативно-правовых документов. Обоснована важность профилактического подхода, цифровизации, финансовой устойчивости и международного сотрудничества для устойчивого развития системы здравоохранения в регионах. Результаты исследования имеют практическое значение для принятия управленческих решений и стратегического планирования в сфере здравоохранения.

Ключевые слова: экономико-статистические методы, показатели системы здравоохранения, здоровье населения, прогнозирование.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF DEVELOPMENT TRENDS IN THE HEALTHCARE SYSTEM TODAY

Abstract: This article examines the trends and prospects for the development of the healthcare system in Uzbekistan based on economic and statistical analysis. Using data from the

World Health Organization (WHO) and the United Nations (UN), the study analyzes global healthcare challenges and best practices for addressing them. The research highlights large-scale reforms implemented in recent years in Uzbekistan's healthcare sector, presidential decrees, state programs, and their impact on public health indicators through statistical evidence. In particular, it reviews the effectiveness of the "Uzbekistan — 2030" Strategy, Presidential Decree No. PF-5590, and other regulatory documents. The importance of a preventive approach, digitalization, financial stability, and international cooperation for the sustainable development of the healthcare system in the regions is substantiated. The findings have practical significance for decision-making and planning in the healthcaresector.

Keywords: economic and statistical methods, healthcare system indicators, public health, forecasting.

Kirish: Sog'liqni saqlash tizimi har bir jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va demografik o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida ushbu sohaning uzluksiz takomillashuvi milliy va global darajada sog'lom turmush tarzini ta'minlash, kasalliklarni oldini olish va umr davomiyligini uzaytirish maqsadlariga yo'naltirilgan. Dunyoda har ikki soniyada bir kishi 70 yoshgacha bo'lgan yoshda yuqumli kasalliklardan vafot etadi. Bu kasalliklar yiliga 41 million kishining hayotini olib ketadi va bu o'limlarning 86 foizi past va o'rta daromadli mamlakatlarda kuzatilmoqda. Jahonda 2022- yilda yurak-qon tomir, saraton, nafas olish va diabet kabi kasalliklar global o'limlarning taxminan 75 foizini tashkil etdi. Agar bu kabi salbiy tendensiya shu tartibda davom etsa, 2050-yilga kelib, bu kabi kasalliklar yillik o'limlarning 86 foizidan yuqoriroq ko'rsatkichni tashkil etishi kutilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra "... so'nggi yillarda dunyo aholisining kamida 4,5 milliard nafari asosiy sog'liqni saqlash xizmatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Bu holat, sog'liqni saqlash xizmatlariga kirishdagi tengsizliklarni yanada kuchaytirmoqda. Shuningdek, dunyo bo'ylab 381 million odam sog'liqni saqlash xizmatlariga to'lovlar tufayli ekstremal qashshoqlikka tushib qolgan."[1]

Jahon mamlakatlarida so'nggi vaqtlarda turli kasalliklar sonining ortib borayotgan hozirgi bosqichida, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar asosan, sog'liqni saqlash tizimining sifatini oshirish, tibbiy xizmatlarga kirishni kengaytirish, kasalliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan. Biroq, bu jarayonni yanada tezlashtirish va samarali qilish uchun yanada ko'proq resurslar va ilmiy-texnologik innovatsiyalarni joriy etish zarur.


Shu sababdan ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Biz uchun bebaho boylik bo'lgan inson salomatligini asrash maqsadida sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning birlamchi bo'g'inidagi bo'linmalarini rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish zarur. ...sohada tahlil va statistikasini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish hukumatning e'tibor markazida bo'lishi lozim"[2] deya ta'kidlab o'tgani bu masalani muhim ekanligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda alohida e'tirof etish kerakki, mintaqalarda sog'likni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish va istiqbolllarini prognozlash masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimida rivojlanish

[1]https://www.fao.org/4/af285e/af285e00.htm

[2]https://kun.uz/35360876?q=%2F35360876#!

tendensiyalarini iqtisodiy-statistik jihatdan baholash sohadagi mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf qilish ayni vaqtda dolzarb masalalardan.



1-rasm. Mintaqalarda fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish tizimidagi asosiy muammolar

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishini samarali tashkil qilishda davlat tomonidan keng miqyosli qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmoqda. Birgina 2025-yilda davlat dasturlari xarajatlari uchun 24,2 trillion so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, ushbu mablag‘larning bir qismi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Jumladan, bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularni dori-darmonlar bilan bepul ta’minlash uchun mablag‘lar 151,2 milliard so‘mdan 250

milliard so‘mga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, mamlakatda iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlash va ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun 50 milliard so‘m, Nefrologiya va gemodializ sohasiga ko‘maklashish uchun 241,8 milliard so‘mgacha bo‘lgan mablag‘lar ajratilmoqda. Mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishini samarali tashkil qilish, rivojlanish tendensiyalarini yaxshilashga yo‘naltirilgan bir qator davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Bu kabi amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizda salomatlik va farovonlikni yaxshilash uchun qulay muhit yaratish, shuningdek, ta’lim, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son farmoni qabul qilindi.

Farmonda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini tubdan oshirishni ta’minlaydigan sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etish va moliyalashtirishning konseptual jihatdan yangi modellarini shakllantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan.Shuningdek, mazkur farmonda mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasi faoliyatini tashkil etishda so‘nggi yillarda to‘planib qolgan tizimli kamchilik va muammolar fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga to‘sqinlik qilayotgani ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bu kamchilik va muammolar quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

Mazkur farmonning ijrosi natijasida mamlakatda aholining sog‘lom turmush tarzini yaxshilash, jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etish, tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, farmatsevtika tarmog‘ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish kabi shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligini ko‘rish mumkin.

Mazkur farmon hujjatlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda aholi salomatligini ta’minlash va sog‘lom turmush tarzini yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu kabi amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat natijasida mamlakatimiz aholisining sog‘lom turmush sifati sezilarli darajada oshmoqda. Birgina O‘zbekistonda 2024-yilda sog‘liqni saqlash sohasiga 36 trillion so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2025-yilda bu miqdor 41 trillion so‘mga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 25 foiz ko‘pdir. Shuningdek, 2024-yilda sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi 146,5 milliard so‘mga yetib, bu bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,9 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab meyoriy-huquqiy hujjatlar tasdiqlandi, tashkiliy-iqtisodiy masalalar ko‘rib chiqildi va amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil, 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-158-sonli farmonining ikkinchi ustuvor yo‘nalishida bir qator maqsadlar va 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab olingan (1-jadval).

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

1-jadval

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida keltirilgan aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha asosiy maqsadlari va 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Maqsad	2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari
1	Aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish	O'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish; tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish; onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha erta o'limni 2,5 barobar kamaytirish; Sil kasalligi bilan kasallanish darajasini 100 ming aholiga nisbatan hozirgi 34 nafardan keskin kamaytirish.
2	Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish va davolash samaradorligini oshirish	350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish; Tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish; Respublikada gemodializ o'rin joylari bilan bemorlarni to'liq qamrab olish.
3	Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish	Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarni 2 barobarga qisqartirish; Chaqaloqlarda irsiy kasalliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovini kamida 50 foizga oshirish.
4	Onalar va bolalar o'limini qisqartirish	Homiladorlik aniqlangan vaqtdan boshlab tug'ruqdan so'ng 42 kun ichida ayollar, go'daklar va besh yoshgacha bolalar orasidagi o'limni 2 barobarga kamaytirish; Tug'ruq o'rinlari sonini 35 foizga oshirish; Bolalar orasidagi yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni 20 foizga qisqartirish.
5	Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish	Tibbiyot muassasalarini raqamlashtirishni 100 foizga yetkazish.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, aholi salomatligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning yaxshilanishi sog'liqni saqlash tizimi bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Har bir mamlakat uchun bu ko'rsatkichlar milliy taraqqiyot va inson kapitalining muhim mezonidir. JSST aholi salomatligiga ta'sir qiluvchi 4 asosiy omilni ajratib ko'rsatadi: hayot tarzi (50% gacha ta'sir qiladi); atrof-muhit (20%); irsi omillar (20%); tibbiy xizmat (10%).

Tadqiqotimizda keltirib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar natijasi mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga sezilarli ijobiy o'zgarishlar ko'rsatmoqda. Biroq, tizimni yanada takomillashtirish uchun ba'zi sohalarda qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Bu borada davlatning doimiy e'tibori va resurslarni samarali taqsimlashi shart. Albatta, bu soha faoliyatini rivojlantirish

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

yo‘nalishlarini to‘g‘ri tashkil qilish hozirda juda muhim.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy va tibbiy ilmiy adabiyotlarda sog‘likni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalari va aholi salomatligi sifatini baholash masalalari ko‘pchilik xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy asoslab o‘rganilgan hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanib tahlil qilingan. Bularga, E.R.Valeyev, A.V.Kamasheva, L.N.Natsun, I.A.Gundarov, C.V.Belousova, T.V.Solov-yeva, Ye.G.Pankova, D.A.Bistyaykina, Ye.Y.Pastuxova, T.S.Kiyaykina, S.S.G‘ulo-mov, O.A.Abdug‘aniyevlarning ilmiy asarlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shuni aytish kerakki, hozirgi davrda saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalari va aholi salomatligi sifatini baholash masalalarini o‘rganish dolzarb masalalarga aylanib bormoqda. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda olimlar tomonidan sog‘likni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalari va aholi salomatligi sifatini iqtisodiy-statistik usullar asosida baholashning o‘ziga xos mazmun-mohiyati va asosiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Misol uchun, mamlakatimizning taniqli iqtisodchi olim akademik Saidahror G‘ulomov o‘zining “O‘zbekiston respublikasida inson kapitalini rivojlantirishda aqliy qobiliyatni ostirish va innovatsiyalarga xizmat qiladigan aqlli ta’lim va aqlli tibbiyot tizimi isloh qilish bo‘yicha”[3] deb nomlangan asarida asosan inson salomatligiga e’tibor qaratilib, bu holatni mintaqalarda yaxshilash uchun innovatsiyalarni rivojlantirishda sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘yiladigan talablarni keltiradi.

S.Sh.Abdusattorov ham O‘zbekiston respublikasi va jahon davlatlari sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlilini amalga oshirgan bo‘lib, uning fikricha, Inson salomatligini ta’minlash uchun yo‘naltirilayotgan mablag‘lar qanchalik darajada mamlakatda salomatlik indeksiga ijobiy ta’sir etayotganligini bilish maqsadida mamlakatda har bir fuqaro salomatligini ta’minlash uchun ajratilayotgan mablag‘ bilan salomat indeksini taqqoslash kerak. Shuning uchun, statistik ma’lumotlar asosida mamlakat tibbiyot sohasi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib tibbiyot korxonalarida axborotlarni raqamlashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan [4]. S.D.Xakimova esa, o‘z asarida asosan mamlakatimizdagi sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilishga e’tibor qaratadi. Shuningdek, ushbu ilmiy ishda O‘zbekistonning sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlar va global tajribalarga asoslangan yondashuvlar ham muhokama qilingan[5].

Mamlakatimizdagi iqtisodchi olim O.A.Abdug‘aniyev o‘z tadqiqotlarida asosan inson salomatligi har narsadan ustunligi hamda “Iste’mol savati”ni optimallashtirishda iqtisodiy va tibbiy omillarning o‘zaro bo‘gliqligi masallariga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, hozirgi kunda O‘zbekistonda oziq-ovqat savatini optimallashtirish muammosining dolzarbligi birinchi navbatda, elementar kasalliklarga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari samarasi past darajada ekanligi bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Shu

[3] S.S.G‘ulomov // “O‘zbekiston respublikasida inson kapitalini rivojlantirishda aqliy qobiliyatni ostirish va innovatsiyalarga xizmat qiladigan aqlli ta’lim va aqlli tibbiyot tizimi isloh qilish” // “Shifo-info” jurnal. №26-son: Toshkent. - 2020y., 3-sentyabr. 24-28 betlar.

[4] S.Sh.Abdusattorov. // “O‘zbekiston respublikasi va jahon davlatlari sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili”. // “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil”, - ilmiy elektro jurnal. noyabr, 2023-yil. 5-10 betlar.

[5] O.R.Fayziyev // “Sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalariva iqtisodiy ko‘rsatkichlari” // Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research. - ilmiy elektro jurnal. 2024 y. 151-158 betlar.

sababli mintaqalarda sog‘liqni saqlash tizimida rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish va bu asosida istiqbollarini belgilab olish juda muhim masalalaridan hisoblanadi[6].

M.M.Azimova ilmiy tadqiqot ishlarida asosan mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasi va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, tibbiyot sohasini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohotlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalariga e’tibor qaratgan[7].

Xorijlik olimlardan Rostov davlat iqtisodiyot universiteti professorlari T.V.Alekseychik, YE.A.Xalitov, M.B.Stryukovlar o‘zlarining “Построение комплексной оценки системы здравоохранения региона с помощью нечеткого моделирования” nomli maqolasida ekonometrik usullardan foydalangan holda mintaqaviy sog‘liqni saqlash tizimini baholash metodologiyasini taklif etgan. Unda asosan tendensiya modellaridan foydalanib, o‘rganilayotgan sog‘liqni saqlash tizimining holatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarning noaniq prognozlari ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, mintaqaviy sog‘liqni saqlash tizimining holatini kompleks raqamli baholash metodologiyasi taklif etiladi[8].

Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti professorlari B.A.Txorikov, I.V.Spichaklarning “Эконометрические модели прогнозирования развития муниципальной системы здравоохранения” nomli asarida asosan mintaqalarda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishini prognozlash uchun ekonometrik modellaridan foydalanish metodikasi keltirib o‘tilgan. Ularning fikricha, sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatidagi turli parametrlar o‘rtasidagi korrelyatsiya aloqalarini hisobga olgan holda ekonometrik modellarni ishlab chiqish yoki optimallashtirish bo‘yicha tizimli dasturlarni shakllantirish orqali mintaqalarda sog‘liqni saqlash tizimining istiqbollarini belgilash lozim[9].

T.P.Vasilyeva, A.V.Larionov, S.V.Russkix, A.B.Zudin, A.YE.Vasyunina, V.M.Rotovlar esa tadqiqotlarida mintaqlar uchun sog‘liqni saqlash sifati indeksini ishlab chiqishga zarur bo‘lgan metodik yondashuvni ochib beradi. Unda keltirilishicha aholi salomatligi sifati indeksini hisoblash ma’lum bir toifadagi odamlar ijtimoiy funktsiyani bajarish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega degan fikrga muvofiq amalga oshiriladi. Yuqorida nomlari keltirilgan olmlar tomonidan taklif etilayotgan yondashuv aholi salomatligini umumlashtirilgan baholashdan haqiqiy baholarga o‘tishga imkon berishini kuzatishimiz mumkin[10].

Rossiyalik olimlardan V.M. Ignatyev o‘z ilmiy asarida Rossiya mintaqasida demografik salomatlik ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillar guruhlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqotda asosiy komponent usulidan foydalanib, yashirin ko‘rsatkichlar tuzilib, ularning ishonchliligi baholangan. Unda demografik ko‘rsatkichlarning tuzilgan regressiya modellari natijaviy ko‘rsatkichga optimal qiymat beradigan omillarning qiymatlarini topish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni

[6] O.A.Abdug‘aniyev. Iste’mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ekonometrik modellari // Dissertatsiya. Iqtisod fanlari doktori (DSc). Urganch – 2022 yil.

[7] M.M.Azimova. // O‘zbekiston mustaqilligi yillarida sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati xuquqiy asoslarining yaratilishi va takomillashtirilishi. // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. 2024 yil, 26-mart. 13-14 betlar;

[8] T.V.Alekseychik, YE.A.Xalitov, M.B.Stryukov. // Построение комплексной оценки системы здравоохранения региона с помощью нечеткого моделирования. // Вестник кибернетики. 2019 г. № 3. 43-51 стр;

[9] Б.А.Тхориков, И.В Спичак. Эконометрические модели прогнозирования развития муниципальной системы здравоохранения // Дисс… доктора экон. наук. – М., 2009 г. – 101-109 стр.

[10] T.P.Vasilyeva, A.V.Larionov, S.V.Russkix, A.B.Zudin, A.YE.Vasyunina, V.M.Rotov. Методический подход к оценке качества общественного здоровья. // Public Health and Life Environment – PH LE Volume 31, Issue 11, 2023 y. – 15-22 pp.

modellashtirish uchun optimallashtirish muammolarini qurish uchun ishlatilishi mumkinligi tadqiq etilgan.

Udmurt Respublikasi tadqiqotchi K.V.Ketova ilmiy asarlarida Udmurt Respublikasi misolida salomatlik indeksidan foydalangan holda aholi salomatligi darajasini dinamik baholash amalga oshirilgan. Uning fikricha, zamonaviy dunyoda aholi salomatligi darajasi taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili bo'lib, u mintaqadagi mehnat resurslari sifati va mehnat unumdorligini belgilaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ilgari ham, hozir ham mintaqalarda aholi salomatligini baholash jarayonlari dolzarb masala bo'lib kelgan. Mazkur tadqiqotlar Mintaqalarda aholi salomatligini baholash mazmun-mohiyati va uning asosiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval.

Mintaqalarda aholi salomatligini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tizimlashtirish

Mualliflar	**Xususiyatlari**	**Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati**
E.R.Valeyev, A.V.Kamasheva	Aholi salomatligini baholash uchun tadqiqotda demografik ko'rsatkichlar, kasalliklarning kasallanish va tarqalishi ko'rsatkichlari, nogironlik ko'rsatkichlari qo'llaniladi.	Kasallik va nogironlik ko'rsatkichlari tibbiy ko'rsatkichlarning yagona guruhiga birlashtirilishi mumkin.
L.N.Natsun	BMTning "Salomatlik va farovonlik" maqsadiga qay darajada erishilayotganligini baholash uchun statistik ko'rsatkichlar yetishmaydi.	Ko'rsatkichlarni baholashda ma'lumotlarning yetarliligini va kelajakda ma'lumotlarni olish mumkinligini ta'minlash kerak.
I.A.Gundarov	Aholi salomatligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini hisobga olish kerak: umr ko'rish davomiyligi; tug'ilish darajasi; ruhiy farovonlik darajasi; ijtimoiy salohiyat darajasi.	Aholi salomatligining asosiy xususiyatlaridan biri bu aholining ijtimoiy farovonligidir.
C.V.Belousova	Aholi salomatligi tushunchasini belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud: "tibbiy-demografik, sanitariya-statistik va psixologik ko'rsatkichlar majmui"; "Jamiyatning har bir a'zosi uchun imkon qadar uzoq umr ko'rishda maksimal sog'liq va ijodiy qobiliyatga erishish ehtimoli darajasi"; "jamiyat hayotiylik shartlarini birlashtiruvchi ajralmas kategoriya .."	Aholi salomatligi jamiyatning tibbiy-ijtimoiy resursi sifatida ko'rib chiqilishi kerak, uning mavjudligi jamiyatning paydo bo'ladigan tahdidlarga qarshi turish imkoniyatlarini belgilaydi.
T.V.Solovyeva, Ye.G.Pankova, D.A.Bistyaykina	Aholi salomatligini baholash uchun tibbiy va demografik jarayonlardan foydalanish taklif etiladi; aholining kasallanish ko'rsatkichlari; aholining nogironligi ko'rsatkichlari; jismoniy rivojlanish	Nogironlik, jismoniy holat va kasallanish ko'rsatkichlari ma'lum bir sog'liqni saqlash guruhini tavsiflovchi yagona

	ko‘rsatkichlari.	ko‘rsatkichga birlashtirilishi mumkin.
Ye.Y.Pastuxova, T.S.Kiyaykina	Aholi salomatligi ko‘rsatkichlarini baholash uchun ko‘rsatkichlarning ikki guruhidan foydalanish mumkin: demografik ko‘rsatkichlar va aholining kasallanish ko‘rsatkichlari.	Aholi salomatligini baholash uchun shunga o‘xshash yondashuvdan foydalanish tavsiya etiladi. Demografik ko‘rsatkichlar jamiyatning ijtimoiy resursini baholash imkonini beradi.

OLINGAN TAHLIL VA NATIJALAR. Mahalliy hamda xorijlik iqtisodchi olimlarning mintaqalarda sog‘liqni saqlash tizimi asosiy ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirishga oid ilmiy qarashlarini o‘rganish va keng qamrovli tahlil qilish mazkur tarmoq faoliyatini tashkil qilishni juda murakkab ekanligini tasdiqlaydi. Mintaqalarda Sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi inson salomatligini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etib, rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari profilaktik yondashuv, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilishi zarur. Shu sababli, sog‘liqni saqlash tizimi har bir davlatning ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi shart.

XULOSA. mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va aholining sog‘lom turmush tarzini yaxshilash uchun davlat tomonidan sog‘liqni saqlash tizimiga ajratiladigan mablag‘lar va investitsiyalarni oshirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, tizimni raqamlashtirish lozim. Agar davlat bu yo‘nalishlarga jiddiy e'tibor qaratgan holda sog‘liqni saqlash tizimini isloh etishni davom ettirsa, aholining umumiy salomatligi va turmush sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1..S.G‘ulomov // “O‘zbekiston respublikasida inson kapitalini rivojlantirishda aqliy qobiliyatni ostirish va innovatsiyalarga xizmat qiladigan aqlli ta’lim va aqlli tibbiyot tizimi isloh qilish” // “Shifo-info” jurnal. №26-son: Toshkent. - 2020y., 3-sentyabr. 24-28 betlar.

2.S.Sh.Abdusattorov. // “O‘zbekiston respublikasi va jahon davlatlari sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili”. // “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil”, - ilmiy elektro jurnal. noyabr, 2023-yil. 5-10 betlar.

3.O.R.Fayziyev // “Sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalariva iqtisodiy ko‘rsatkichlari” // Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research. - ilmiy elektro jurnal. 2024 y. 151-158 betlar.

4.O.A.Abdug‘aniyev. Iste’mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ekonometrik modellari // Dissertatsiya. Iqtisod fanlari doktori (DSc). Urganch – 2022 yil.

5.M.M.Azimova. // O‘zbekiston mustaqilligi yillarida sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati huquqiy asoslarining yaratilishi va takomillashtirilishi. // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. 2024 yil, 26-mart. 13-14 betlar;

6.T.V.Alekseychik, YE.A.Xalitov, M.B.Stryukov. // Построение комплексной оценки системы здравоохранения региона с помощью нечеткого моделирования. // Вестник кибернетики. 2019 г. № 3. 43-51 стр;

7. Б.А.Тхориков, И.В Спичак. Эконометрические модели прогнозирования развития муниципальной системы здравоохранения // Дисс… доктора экон. наук. – М., 2009 г. – 101-109 стр.

8.T.P.Vasilyeva, A.V.Larionov, S.V.Russkix, A.B.Zudin, A.YE.Vasyunina, V.M.Rotov. Методический подход к оценке качества общественного здоровья. // Public Health and Life Environment – PH LE Volume 31, Issue 11, 2023 y. – 15-22 pp.

9.B.M.Игнатев. Статистическое моделирование демографических показателей здоровья населения региона // "Экономика народонаселения и демография" //Актуальные вопросы экономических наук. 2019 г.- 106-110 стр.

10.K.V.Ketova. Health index of the population of the economic system: the region al dimension. // Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «StudNet» №1/2021 г. – 3-25 стр.

11.https://www.fao.org/4/af285e/af285e00.htm

12.https://kun.uz/35360876?q=%2F35360876#